



**ZAMONAVIY RIVOJLANISH SHAROITIDA O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
FUQAROLIK QONUNCHILIGINI TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY VA
AMALIY MASALALARI**

Umirzoqova Nargiza O‘ktam qizi

Bojxona instituti 2-kurs

YuP 124-guruh kursanti,

e-mail: umirzoqova04007@gmail.com

Bog‘lanish uchun telefon raqam: (88) 878-02-11

Annotatsiya: mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasining rivojlanishining hozirgi bosqichida fuqarolik qonunchiligini yangilash zarurati va uning asosiy yo‘nalishlari tahlil qilinadi. Xususan, amaldagi Fuqarolik kodeksining tarixiy ahamiyati, iqtisodiy islohotlar sharoitida uning ayrim normalarini modernizatsiya qilish zarurati yoritilgan. Shuningdek, fuqarolik qonunchiligini takomillashtirish bo‘yicha 2019-yil 5-apreldagi Prezident farmoyishining mazmuni hamda unda belgilangan ustuvor vazifalar ko‘rib chiqiladi. Maqolada ashyoviy huquq, majburiyat huquqi, intellektual mulk, vorislik huquqi va xalqaro xususiy huquq sohalarini rivojlantirish istiqbollari tahlil qilinadi. Fuqarolik qonunchiligini xalqaro standartlarga moslashtirish hamda zamonaviy iqtisodiy munosabatlarni huquqiy tartibga solish masalalariga alohida e‘tibor qaratiladi.

Kalit so‘zlar: fuqarolik qonunchiligi, Fuqarolik kodeksi, huquqiy islohotlar, xususiy mulk, bozor iqtisodiyoti, elektron tijorat, intellektual mulk, xalqaro xususiy huquq, investitsiya muhiti.

Аннотация: в данной статье рассматриваются вопросы обновления гражданского законодательства Республики Узбекистан на современном этапе развития государства. Анализируется значение действующего Гражданского кодекса, принятого в 1996 году, а также необходимость его совершенствования в условиях развития рыночной экономики и цифровых технологий. Особое внимание уделяется Указу Президента Республики Узбекистан от 5 апреля 2019 года, направленному на дальнейшее совершенствование гражданского законодательства. В статье также рассматриваются перспективы развития вещного права, обязательственного права, интеллектуальной собственности, наследственного права и международного частного права. Отдельно подчеркивается важность гармонизации национального законодательства с международными стандартами и регулирования современных экономических отношений.

Ключевые слова: гражданское законодательство, Гражданский кодекс, правовые реформы, частная собственность, рыночная экономика, электронная коммерция, интеллектуальная собственность, международное частное право, инвестиционная среда.

Abstract: *this article examines the process of updating civil legislation in the Republic of Uzbekistan at the current stage of national development. It analyzes the significance of the Civil Code adopted in 1996 and highlights the need for its modernization in the context of market economy development and technological progress. Particular attention is given to the Presidential Decree of April 5, 2019, aimed at improving civil legislation. The article also discusses the prospects for the development of property law, law of obligations, intellectual property, inheritance law, and private international law. Special emphasis is placed on the harmonization of national legislation with international standards and the legal regulation of modern economic relations.*

Keywords: *civil legislation, Civil Code, legal reforms, private property, market economy, electronic commerce, intellectual property, private international law, investment climate.*

O‘zbekiston Respublikasi yangi taraqqiyot bosqichiga kirar ekan, mamlakatda huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini shakllantirishda fuqarolik qonunchiligini tubdan isloh qilish zarurati dolzarb masalaga aylandi. Fuqarolik kodeksi – iqtisodiy munosabatlar, shaxslar o‘rtasidagi mulkiy va nomulkiy huquqlarni tartibga soluvchi markaziy normativ-huquqiy hujjat bo‘lib, uning zamonaviy talablar asosida yangilanishi huquqiy barqarorlikni ta‘minlashda muhim omildir. Amaldagi Fuqarolik kodeksi 1996-yilda qabul qilingan bo‘lib, bugungi kun iqtisodiyoti va texnologik taraqqiyot sharoitida ayrim jihatlari eskirib qoldi. Yangi tahrirdagi Fuqarolik kodeksi loyihasi hozirgi bosqichda ishlab chiqilmoqda va u bozor iqtisodiyoti, raqamli texnologiyalar, xalqaro huquqiy standartlar hamda investorlar manfaatlarini hisobga olgan holda tayyorlanmoqda. 1995-1996-yillarda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi “o‘tish davri”ning keng ko‘lamli o‘zgarishlarini fuqarolik-huquqiy tartibga solishda muhim rol o‘ynadi va mamlakatda bozor iqtisodiyotini rivojlantirish uchun mustahkam huquqiy zamin yaratishga imkon berdi. Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi rivojlanishining yangi bosqichi iqtisodiyotni yanada liberallashtirish, iqtisodiy munosabatlarni tartibga solishda davlat ishtirokini kamaytirish, xususiy mulk kafolatlarini himoya qilishni kuchaytirish, tadbirkorlikning rivojlanishini rag‘batlantirish va xorijiy investitsiyalarni faol jalb etish bo‘yicha ustuvor vazifalarni belgilab berdi.

Real bozor iqtisodiyoti va ilg‘or xalqaro standartlar talablariga javob beradigan, to‘g‘ridan to‘g‘ri amal qiladigan zamonaviy fuqarolik qonunchiligini shakllantirmasdan turib ushbu vazifalarga erishib bo‘lmaydi. Fuqarolik-huquqiy tartibga solishning eng muhim qoidalarini belgilovchi kodifikatsiya qilingan qonun hujjati bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi fuqarolik qonunchiligi hujjatlari tizimida markaziy o‘rinni egallaydi. Iqtisodiy islohotlarning amalga oshirilishi bo‘yicha o‘tkazilgan tahlil Fuqarolik kodeksida, avvalambor, bozor islohotlarini yanada chuqurlashtirish, qulay investitsiya va ishbilarmonlik muhitini shakllantirish, xalqaro reytinglarda mamlakat o‘rnini yaxshilashga salbiy ta‘sir ko‘rsatuvchi jiddiy kamchilik va bo‘shliqlarni aniqlashga imkon berdi.[2]



O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti 2019-yil 5-aprel kuni “O‘zbekiston Respublikasining fuqarolik qonunchiligini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoyishni imzoladi.

Hujjat bilan quyidagilar O‘zbekiston Respublikasi fuqarolik qonunchiligini yanada takomillashtirishning asosiy ustuvor yo‘nalishlari etib belgilandi:

- fuqarolik qonunchiligi normalarini tizimlashtirish va unifikatsiya qilish, ularning eng namunali xorijiy amaliyotlar bilan uyg‘unligini ta‘minlash, shuningdek, ushbu sohada ilg‘or xalqaro standartlarni implementatsiya qilish;

- xususiy mulkning daxlsizligi kafolatlarini ta‘minlaydigan, jismoniy va yuridik shaxslarning, ayniqsa tadbirkorlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qiladigan samarali fuqarolik-huquqiy mexanizmlarni belgilash;

- ommaviy va fuqarolik huquq normalarini aniq chegaralash, iqtisodiyotni boshqarishda ma‘muriy-buyruqbozlik tamoyillariga asoslangan, o‘z ahamiyatini yo‘qotgan va eskirib qolgan qoidalarni chiqarib tashlash;

- davlat-xususiy sherikligi, klasterlik ishlab chiqarishi, elektron tijorat, kripto-valuta aylanmasi, yer uchastkalarini xususiylashtirish, ulushli qurilish va boshqa zamonaviy fuqarolik-huquqiy institutlar va iqtisodiy munosabatlar shakllarini huquqiy tartibga solishni ta‘minlash.


Farmoyish fuqarolik qonunchiligini zamonaviylashtirish, xalqaro tajribalar bilan uyg‘unlashtirish va uni izchil tizimga solishga qaratilgan muhim huquqiy-huquqiy asos bo‘ldi. Farmoyishda mamlakat fuqarolik qonunchiligi rivojining asosiy ustuvor yo‘nalishlari belgilab berilgan.

Fuqarolik qonunchiligi normalarini tizimlashtirish va unifikatsiya qilish – mavjud huquqiy me‘yorlar orasidagi qarama-qarshilik va chalkashliklarni bartaraf etish, normativ bazani yagona izchil tizimga keltirishni nazarda tutadi. Bu orqali qonunlar yanada aniq, tushunarli va qo‘llash uchun qulay bo‘ladi. Xususan, xorijiy ilg‘or amaliyotlarni milliy qonunchilikka uyg‘unlashtirish hamda xalqaro standartlarni joriy etish huquqiy tizimning global raqobatbardoshligini oshiradi. Kelajakda bu islohotlar natijasida sudlar va yuristlarning ish faoliyati yengillashadi, fuqarolar va investorlar uchun huquqiy aniqlik ta‘minlanadi, bu esa mamlakatga bo‘lgan huquqiy ishonchni mustahkamlaydi.

Xususiy mulk daxlsizligini kafolatlash va shaxs hamda tadbirkorlarning huquqlarini himoya qilish – fuqarolik qonunchiligida mulk egaligini muqaddas va daxlsiz deb e‘tirof etish tamoyilini amalda ta‘minlashga qaratilgan. Jismoniy va yuridik shaxslar, ayniqsa tadbirkorlar uchun huquqiy himoya mexanizmlarini kuchaytirish orqali mamlakatda tadbirkorlik faoliyati uchun barqaror va xavfsiz muhit yaratiladi. Buning natijasida iqtisodiy faollik oshadi, mulk bilan bog‘liq nizolar kamayadi va mahalliy hamda xorijiy investorlar uchun ishonchli muhit shakllanadi.

Fuqarolik va ommaviy huquqiy normalarni aniq chegaralash, eskirgan va samarasiz qoidalarni qonunchilikdan chiqarib tashlash – fuqarolik huquqiy munosabatlarni davlatning bevosita aralashuvidan xoli qilishga xizmat qiladi. Bu orqali





ma'muriy-buyruqbozlikka asoslangan yondashuvlardan voz kechilib, bozor iqtisodiyoti talablariga mos, erkin va raqobatbardosh huquqiy muhit yaratiladi. Kelajakda bu islohotlar huquqiy erkinlik va tashabbuskorlik uchun mustahkam zamin yaratadi, davlat va biznes o'rtasidagi munosabatlar soddalashtiriladi, iqtisodiyotni boshqarishda demokratik mexanizmlar ustuvorlik qiladi.

Zamonaviy iqtisodiy institutlar va fuqarolik-huquqiy munosabat shakllarini huquqiy tartibga solish – davlat-xususiy sheriklik, klasterlik ishlab chiqarish, elektron tijorat, kripto-valyutalar, yer uchastkalarini xususiylashtirish, ulushli qurilish kabi yangi iqtisodiy institutlarning qonunchilikda mustahkam o'rin egallashini nazarda tutadi. Bu yo'nalish zamonaviy iqtisodiy faoliyat turlarining huquqiy asoslarini yaratadi va innovatsion rivojlanish uchun yo'l ochadi. Kutilayotgan natijalar qatorida yangi ish o'rinlarining yaratilishi, texnologik taraqqiyot, sarmoyalar jalb qilinishi va mamlakatning raqamli iqtisodiyotga muvaffaqiyatli o'tishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Farmoyish doirasida, shuningdek, **O'zbekiston fuqarolik qonunchiligini takomillashtirish konsepsiyasi** tasdiqlandi hamda mazkur islohotlarni tizimli va samarali amalga oshirish uchun **idoralararo komissiya** tashkil etildi. Ushbu komissiya huquqshunos olimlar, amaliyotchilar, davlat organlari va fuqarolik jamiyati vakillarini jalb etgan holda fuqarolik qonunchiligi bo'yicha ilg'or taklif va loyihalarni ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, bu farmoyish O'zbekistonning huquqiy tizimini bozor tamoyillariga asoslangan, shaxs va mulk huquqlarini ustuvor qo'ygan, zamonaviy va xalqaro talablar darajasidagi fuqarolik qonunchiligiga aylantirish yo'lida muhim huquqiy poydevor bo'lib xizmat qilmoqda.[1]

Fuqarolik qonunchiligini yangilashda konseptual yondashuv sifatida bir nechta asosiy tamoyillar ko'zda tutilmoqda: huquqiylik va adolat prinsiplarining ustuvorligi, erkin shartnoma va mulk daxlsizligi tamoyillarini mustahkamlash, qonun modullarini funksional asosda tuzish (ashyoviy huquq, majburiyat huquqi, vorislik, intellektual mulk, xalqaro xususiy huquq), shuningdek xalqaro tajriba va zamonaviy texnologik tendensiyalarni inobatga olish.

Ashyoviy huquq sohasida zamonaviy talablar raqamli mulk, elektron aktivlar, intellektual ob'ektlar huquqiy maqomini belgilash zaruratini tug'dirmoqda. Mulq daxlsizligini kafolatlovchi mexanizmlarni kuchaytirish, notarial va kadastr tizimlarini raqamlashtirish orqali huquqiy aniqlikni ta'minlash zarur.

Majburiyat huquqi bo'yicha esa, elektron shartnomalar, smart-kontraktlar, majburiyatlarni ijro etish kafolatlari, zararlarni qoplash va fuqarolarning manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan mexanizmlarni takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shartnomaviy erkinlik prinsipi saqlanib qolgan holda, iste'molchilar huquqlarini himoya qilish, odil shartnoma shartlarini ta'minlash asosiy vazifa sifatida belgilanishi lozim.

Intellektual mulk sohasida xalqaro konvensiyalar (TRIPS, Bern, WIPO) doirasida huquqlarni muhofaza qilish, ro'yxatga olish tartibini soddalashtirish, litsenziya, franchayzing

va innovatsion faoliyatni rag‘batlantiruvchi huquqiy mexanizmlarni ishlab chiqish zarur. Huquqbuzarliklarga nisbatan samarali javobgarlik choralarini joriy etish ham dolzarbdir.

Vorislik huquqida esa merosni qabul qilish va merosdan voz kechish mexanizmlarini soddalashtirish, chet eldagi mol-mulk bo‘yicha vorislik huquqini tan olish va xalqaro vorislik huquqini tartibga soluvchi normalarni kodeksga kiritish talab etiladi.

Xalqaro xususiy huquq bo‘yicha O‘zbekistonning xalqaro huquqiy maydondagi integratsiyasini hisobga olib, chet ellik fuqarolar va yuridik shaxslar ishtirokidagi munosabatlarni tartibga soluvchi kollizion normalar, xorijiy huquqni qo‘llash shartlari, xalqaro yurisdiksiya va arbitraj tanlovi tamoyillari aniq va barqaror huquqiy asosda belgilanmog‘i lozim.

Milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga moslashtirish maqsadida Germaniya, Fransiya, Polsha, Janubiy Koreya kabi mamlakatlarning fuqarolik kodekslari tajribasini chuqur o‘rganish, amaldagi normativ hujjatlar bilan muvofiqlikni ta‘minlash muhim ahamiyat kasb etadi.[4]

Xulosa qilib aytganda, fuqarolik qonunchiligini yangilash — bu faqat normativ hujjatni yangilash emas, balki fuqarolarning huquqiy madaniyatini oshirish, investorlar uchun ishonchli huquqiy muhit yaratish, shuningdek raqamli iqtisodiyot va xalqaro huquqiy integratsiyaga tayyor bo‘lgan barqaror fuqarolik-huquqiy tizimni shakllantirishdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-apreldagi farmoyishi – <https://lex.uz/docs/4272621>
2. “O‘zbekiston fuqarolik kodeksi” – 1996-yilgi rasmiy matn.
3. <https://kun.uz/48142100>
4. Xalqaro fuqarolik kodekslari tahlili (Germaniya, Janubiy Koreya, Fransiya) – normativ-huquqiy sharhlar.

